



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TO'LOV BALANSI,
XALQARO INVESTITSIYAVIY MAVQEI
VA TASHQI QARZI**

2024

I

YARIM YILLIK

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MARKAZIY BANKI

- 2024 -

Bu qanday nashr?

Ushbu nashr 2024 yilning I yarmi uchun O'zbekiston to'lov balansi, xalqaro investitsiyaviy mavqei hamda tashqi qarzi bo'yicha ma'lumotlarni o'z ichiga olib, Xalqaro valyuta jamg'armasining "To'lov balansi va xalqaro investitsiyaviy mavqe bo'yicha qo'llanmasi"ning oltinchi nashriga (TBQ 6-son, XVJ, 2009 y.) hamda "Tashqi qarz statistikasi bo'yicha qo'llanma"ga (2013) muvofiq tayyorlangan.

Ma'lumotlar qaysi sanaga dolzarb?

Ushbu nashrda keltirilgan statistik ma'lumotlar 2024 yil 30-sentabr holatiga dolzarb hisoblanadi.

Ma'lumotlarni qayerdan olish mumkin?

To'lov balansi, xalqaro investitsiyaviy mavqei hamda tashqi qarzi bo'yicha tahliliy va standart ko'rinishdagi statistik jadvallar O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining <http://www.cbu.uz/> va XVJning <http://data.imf.org/> veb-saytlari orqali taqdim qilinmoqda.

Nashrga taalluqli savol va takliflar bo'yicha qanday murojaat qilish mumkin?

A.M. Olimov

Valyutani tartibga solish va to'lov balansi departamenti direktori

(+998) 71 212-60-38

olimov@cbu.uz

O.O. Tojiddinov

Departament direktori o'rinbosari – to'lov balansi boshqarmasi boshlig'i

(+998) 71 212-60-77

o.tojiddinov@cbu.uz

Sh.X. Xayitboyev

To'lov balansi boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari

(+998) 71 212-60-42

sh.khayitboev@cbu.uz


Shuningdek, savollar va takliflar qo'shimcha ravishda val@cbu.uz elektron pochta manziliga yuborilishi mumkin.

QISQACHA SHARH

Mazkur davrda **joriy operatsiyalar hisobi taqchilligi** o'tgan yilning mos davriga nisbatan 15 foizga **qisqarib**, **2,4 mlrd dollar** yoki YalMga nisbatan **5,4 foizni** tashkil qildi.

Xususan, asosiy savdo hamkor mamlakatlarda iqtisodiy faollikning kutilmalar doirasida shakllanishi, xalqaro bozorlarda xomashyo narxlarining o'zgarishi¹, shuningdek norezidentlarga xalqaro xizmatlar ko'rsatish (*turizm, transport va axborot texnologiyalari*) ko'lamining ortishi natijasida, **eksport** hajmi o'tgan yilning I yarmiga nisbatan **4,1 foizga**² o'sib, **12,7 mlrd dollarni** tashkil qildi.

Joriy yilning I yarmida ishbilarmonlik faoliyati va ichki iste'mol talabi yuqori darajada saqlanib qolishi sharoitida xorijdan energoresurslar, mashina va uskunalar, oziq-ovqat mahsulotlari keltirilishi, shuningdek o'tgan yilning mos davrida ayrim turdagi transport vositalari importi hisobiga shakllangan yuqori baza fonida **import** hajmi **3,4 foizga** ko'payib, **20,6 mlrd dollarga** teng bo'ldi.



¹ Jahon bankining xomashyo tovarlari narxlariga oid ma'lumotlariga ko'ra, 2024 yilning yanvar-iyun oylarida oltinning o'rtacha narxi o'tgan yilning mos davridagi o'rtacha narxga nisbatan 14 foizga, kumush narxi 12 foizga, mis narxi 4,5 foizga hamda uran narxi 70 foizga o'sgan bo'lsa, paxtaning (to'qimachilik sohasi asosiy xomashyosi) narxi o'tgan yilga nisbatan 4 foizga va joriy yil boshiga nisbatan 8 foizga pasaygan.

² 2023-yil eksport hajmlariga kiritilgan tuzatishlarni inobatga olmagan holda.


Natijada, 2024 yilning I yarmida **tashqi savdo balansining** manfiy saldosi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,2 foizga ko'payib, **7,9 mlrd** dollarni tashkil qildi.

O'z navbatida, **birlamchi va ikkilamchi daromadlar balansi** musbat saldo bilan shakllanib, mos ravishda **572,5 mln** dollar va **4,9 mlrd** dollarni tashkil etgan holda savdo balansi taqchilligini qisman qopladi.

Mehnat migratsiyasi geografiyasi tarkibida yuqori daromadli mamlakatlar ulushining ortishi, shuningdek mehnat muhojirlari ishlaydigan an'anaviy mamlakatlarda ish haqi miqdorining ko'payishi birlamchi va ikkilamchi daromadlar komponentlari bo'yicha tushumlarning shakllanishini rag'batlantirgan bo'lsa, norezidentlarning investitsiya daromadlari oshishi xarajatlarni ko'paytiruvchi omillardan bo'ldi.

Joriy operatsiyalar hisobi taqchilligi moliyaviy hisob bo'yicha kapital tushumlar, xususan, to'g'ridan-to'g'ri, portfel va boshqa investitsiyalar jalb qilinishi hisobiga moliyalashtirildi.

Jumladan, 2024 yilning I yarmi davomida mamlakatga **to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning sof kiritilishi**³ o'tgan yilning mos davriga nisbatan 15,6 foizga o'sib, 1,3 mlrd dollarga teng bo'ldi.



³ To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bo'yicha ma'lumotlar Xalqaro valyuta jamg'armasining qo'llanmasiga (TBQ 6-son, XVJ, 2009 y.) muvofiq sof hajmlarda (investitsiya kiritilishi va repatriatsiyasi o'rtasidagi saldo) aks ettiriladi.

Portfel investitsiyalarning sof jalb qilinishi 862 mln dollarni tashkil qilib, asosan xalqaro obligatsiyalar bilan bog'liq operatsiyalar hisobiga shakllandi.

Yuqoridagi tarkibiy omillar hisobiga 2024 yilning I yarmi yakuni bo'yicha **moliyaviy hisob** manfiy saldosi **2,7 mlrd** dollarni tashkil etdi.

Hisobot davrida **xalqaro zaxira aktivlarining** xorijiy valyutadagi qismi 866 mln dollarga qisqarishi kuzatildi. Biroq, oltin jahon narxining yuqori sur'atlarda o'sishi natijasida xalqaro zaxiralar qoldig'i joriy yil boshiga nisbatan qariyb 1,8 mlrd dollarga ko'payib, 2024 yilning 1-iyul holatiga **36,3 mlrd** dollarni tashkil qildi.

2024 yilning I yarmi yakuniga ko'ra, to'lov balansida aks etgan amaliyotlar va nooperatsiyaviy o'zgarishlar ta'sirida O'zbekistonning **sof xalqaro investitsiyaviy mavqei** joriy yil boshiga nisbatan **10 foizga** mustahkamlanib, 2024 yil 1-iyul holatiga **13,8 mlrd** dollarga yetdi.

Bunda, rezidentlarning chet el valyutasidagi aktivlari hajmi 4,1 mlrd dollarga (*joriy yilning boshiga nisbatan 5 foizga ko'p*) oshgan bo'lsa, tashqi majburiyatlari hajmi 2,8 mlrd dollarga (*4 foizga ko'p*) ko'paydi.

Hisobot davri yakuniga ko'ra, **umumiy tashqi qarz** hajmi **56,6 mlrd** dollarni tashkil qilib, shundan davlat tashqi qarzi hajmi qariyb 31 mlrd dollar⁴ hamda korporativ tashqi qarz hajmi 25,6 mlrd dollarga teng bo'ldi.

Shuningdek, Xalqaro valyuta jamg'armasi missiyasining tavsiyalari va transchegaraviy pul o'tkazmalariga oid statistik so'rovlar natijalaridan kelib chiqib, 2022-2023-yillardagi joriy operatsiyalar hisobi ko'rsatkichlariga tegishli tuzatishlar kiritildi.

Markaziy bank O'zbekiston Respublikasining to'lov balansi, xalqaro investitsiyaviy mavqei va tashqi qarz ko'rsatkichlarini shakllantirish doirasidagi hamkorlik uchun tegishli vazirlik, idora va boshqa tashkilotlarga o'z minnatdorchiligini bildiradi hamda keyingi samarali hamkorlikka umid qiladi.

⁴ XVJning TBQ 6-son qo'llanmasiga muvofiq davlat tashqi qarzi qoldig'i hisoblangan, lekin to'lanmagan foizlarni ham o'z ichiga oladi.

1-ilova. 2022-2024-yillarning I yarmi uchun to'lov balansi*(tahliliy ko'rinishi)**(mln dollar)*

Ko'rsatkichlar	2022-yil I yarmi	2023-yil I yarmi	2024-yil I yarmi
A. Joriy operatsiyalar hisobi saldosi	-1 482,4	-2 859,8	-2 423,0
Tovarlar, kredit (eksport)	8 461,8	10 078,7	9 537,0
Tovarlar, debet (import)	12 888,6	16 177,6	15 842,2
Xizmatlar, kredit (eksport)	1 691,0	2 344,4	3 152,9
Xizmatlar, debet (import)	3 305,8	3 704,3	4 711,2
<i>Jami eksport</i>	<i>10 152,8</i>	<i>12 423,0</i>	<i>12 689,9</i>
<i>Jami import</i>	<i>16 194,4</i>	<i>19 881,9</i>	<i>20 553,4</i>
<i>Savdo balansi saldosi</i>	<i>-6 041,7</i>	<i>-7 458,9</i>	<i>-7 863,5</i>
Birlamchi daromadlar, kredit	2 038,8	2 758,4	2 920,0
Birlamchi daromadlar, debet	1 292,0	1 894,8	2 347,6
<i>Savdo balansi va birlamchi daromadlar saldosi</i>	<i>-5 294,9</i>	<i>-6 595,3</i>	<i>-7 291,1</i>
Ikkilamchi daromadlar, kredit	4 262,4	4 194,6	5 410,8
Ikkilamchi daromadlar, debet	449,9	459,0	542,7
B. Kapital operatsiyalari hisobi (oltin-valyuta zaxiralaridan tashqari)	9,4	2,8	0,5
Kapital operatsiyalar hisobi, kredit	9,4	2,8	0,5
Kapital operatsiyalar hisobi, debet	0,0	0,0	0,0
<i>Joriy operatsiyalar hisobi va kapital operatsiyalar hisobi saldosi</i>	<i>-1 472,9</i>	<i>-2 856,9</i>	<i>-2 422,5</i>
C. Moliyaviy hisob	-1 112,1	-313,2	-1 943,1
To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar, aktivlar	2,7	10,4	8,2
To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar, majburiyatlar	896,4	1 127,3	1 303,4
Portfel investitsiyalar, aktivlar	0,0	0,2	0,0
Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari	0,0	0,2	0,0
Qarz instrumentlari	0,0	0,0	0,0
Portfel investitsiyalar, majburiyatlar	7,7	3,6	862,0
Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari	7,3	4,0	-13,7
Qarz instrumentlari	0,3	-0,4	875,7
Hosilaviy moliyaviy instrumentlar (oltin-valyuta zaxiralaridan tashqari)	5,8	1,3	0,0
Hosilaviy moliyaviy instrumentlar, aktivlar	0,0	0,0	0,0

Ko'rsatkichlar	2022-yil I yarmi	2023-yil I yarmi	2024-yil I yarmi
Hosilaviy moliyaviy instrumentlar, majburiyatlar	-5,8	-1,3	0,0
Boshqa investitsiyalar, aktivlar	3 569,8	1 570,2	2 448,2
Kapitalda ishtirok etishning boshqa instrumentlari	0,4	0,4	0,0
Qarz instrumentlari	3 569,4	1 569,8	2 448,2
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Depozit tashkilotlari, Markaziy bank bundan mustasno	1 496,5	-1 646,4	159,6
Davlat boshqaruv sektori	-10,7	-10,5	-6,9
Boshqa sektorlar	2 083,7	3 226,7	2 295,5
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	0,0	0,0	0,0
Nomoliyaviy tashkilotlar, uy xo'jaliklari va UXXKNT	2 083,7	3 226,7	2 295,5
Boshqa investitsiyalar, majburiyatlar	3 786,3	764,4	2 234,0
Kapitalda ishtirok etishning boshqa instrumentlari	0,0	0,0	0,0
MQH taqsimlanishi	1,1	1,8	-0,1
Qarz instrumentlari	3 785,2	762,6	2 234,1
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Depozit tashkilotlari, Markaziy bank bundan mustasno	2 190,6	57,3	191,1
Davlat boshqaruv sektori	339,1	773,1	1 199,2
Boshqa sektorlar	1 255,5	-67,8	843,8
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	23,8	14,0	8,5
Nomoliyaviy tashkilotlar, uy xo'jaliklari va UXXKNT	1 231,7	-81,8	835,4
D. Sof xatolar va yo'qotishlar	645,8	521,4	-325,8
E. Umumiy balans	-284,9	2 022,2	805,2
F. Zaxiralar va ular bilan bog'liq moddalar	284,9	-2 022,2	-805,2
Zaxira aktivlari	285,2	-2 021,8	-866,3
XVJdan sof qarz jalb qilish (XVJdagi zaxira pozitsiyasidan tashqari)	0,2	0,4	-61,1
Boshqa moliyalashtirish	0,0	0,0	0,0

Ushbu statistik hisobot to'lov balansini tuzish qo'llanmasining (TBQ 6-son, XVJ, 2009 y.) 6-nashrida keltirilgan tahliliy ko'rinishni aks ettiradi.

2-ilova. 2022-2023-yillar va 2024-yilning I yarmi uchun xalqaro investitsiyaviy mavqe

(mln dollar)

Ko'rsatkichlar	01.01.2023y.	01.01.2024y.	01.07.2024y.
Aktivlar	82 293,7	84 883,5	88 948,1
To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	202,0	209,9	219,2
Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari	31,6	37,1	45,1
To'g'ridan-to'g'ri investorning to'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaga investitsiyalari	31,6	37,1	45,1
To'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaning to'g'ridan-to'g'ri investorga investitsiyasi (teskari investitsiyalash)	0,0	0,0	0,0
Qardosh korxonalar o'rtasida investitsiyalar	0,0	0,0	0,0
Qarz instrumentlari	170,3	172,8	174,0
To'g'ridan-to'g'ri investorning to'g'ridan to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaga investitsiyalari	2,5	2,5	2,5
To'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaning to'g'ridan-to'g'ri investorga investitsiyasi (teskari investitsiyalash)	0,0	0,0	0,0
Qardosh korxonalar o'rtasida investitsiyalar	167,9	170,4	171,6
Portfel investitsiyalar	2,5	2,9	3,0
Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari	2,5	2,9	3,0
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari	1,1	1,1	1,1
Davlat boshqaruvi sektori	0,0	0,0	0,0
Boshqa sektorlar	1,4	1,8	1,9
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	0,0	0,0	0,0
Qarz qimmatli qog'ozlari	0,0	0,0	0,0
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari	0,0	0,0	0,0
Davlat boshqaruvi sektori	0,0	0,0	0,0
Boshqa sektorlar	0,0	0,0	0,0
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	0,0	0,0	0,0
Hosilaviy moliyaviy instrumentlar (oltin valyuta zaxiralaridan tashqari) va xodimlar uchun aksiyalarning opsiyonlari	0,0	0,0	0,0

Ko'rsatkichlar	01.01.2023y.	01.01.2024y.	01.07.2024y.
Boshqa investitsiyalar	46 321,6	50 106,0	52 385,4
Boshqa kapitalda ishtirok etish instrumentlari	1,6	2,0	2,0
Qarz instrumentlari	46 320,0	50 104,0	52 383,4
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari	4 556,9	3 242,7	3 404,7
Davlat boshqaruvi sektori	3,7	4,8	3,3
Boshqa sektorlar	41 759,4	46 856,4	48 975,3
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	0,0	0,0	0,0
Zaxira aktivlari	35 767,5	34 564,6	36 340,6
Monetar oltin	23 064,8	24 632,2	27 318,9
Qarz olishlarning maxsus huquqlari	1 057,3	563,0	551,9
XVJdagi zaxira pozitsiyasi	0,0	0,0	0,0
Boshqa zaxira aktivlari	11 645,4	9 369,5	8 469,7
Majburiyatlar	63 340,9	72 283,3	75 132,1
To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	13 839,7	14 864,1	15 253,8
Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari	11 363,5	11 357,1	11 231,6
To'g'ridan-to'g'ri investorning to'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaga investitsiyalari	11 363,5	11 357,1	11 231,6
To'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaning to'g'ridan-to'g'ri investorga investitsiyasi (teskari investitsiyalash)	0,0	0,0	0,0
Qardosh korxonalar o'rtasida investitsiyalar	0,0	0,0	0,0
Qarz instrumentlari	2 476,2	3 506,9	4 022,2
To'g'ridan-to'g'ri investorning to'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaga investitsiyalari	2 245,3	3 214,2	3 689,2
To'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaning to'g'ridan-to'g'ri investorga investitsiyasi (teskari investitsiyalash)	0,0	0,0	0,0
Qardosh korxonalar o'rtasida investitsiyalar	230,9	292,7	333,0
Portfel investitsiyalar	4 192,1	5 295,3	6 114,6
Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari	105,8	123,7	105,9
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari	48,4	57,5	66,9
Davlat boshqaruvi sektori	0,0	0,0	0,0
Boshqa sektorlar	57,4	66,3	39,0
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	1,3	1,7	1,3
Qarz qimmatli qog'ozlari	4 086,2	5 171,6	6 008,7
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0

Ko'rsatkichlar	01.01.2023y.	01.01.2024y.	01.07.2024y.
Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari	893,9	1 027,7	1 099,9
Davlat boshqaruvi sektori	2 375,0	3 284,7	4 030,9
Boshqa sektorlar	817,3	859,2	877,9
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	0,0	0,0	0,0
Hosilaviy moliya instrumentlar (oltin-valyuta zaxiralaridan tashqari) va xodimlar uchun aksiyalarning opsiyonlari	2,0	0,0	0,0
Boshqa investitsiyalar	45 307,2	52 124,0	53 763,7
Boshqa kapitalda ishtirok etish instrumentlari	0,0	0,0	0,0
Qarz olishlarning maxsus huquqlari (majburiyatlarni sof qabul qilish)	1 057,6	1 068,8	1 047,6
Boshqa qarz instrumentlari	44 249,6	51 055,2	52 716,0
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari	10 440,4	11 318,7	11 367,2
Davlat boshqaruvi sektori	18 007,8	21 353,4	22 159,7
Boshqa sektorlar	15 801,5	18 383,2	19 189,1
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	105,1	114,0	122,3
Sof xalqaro investitsiyaviy mavqe	18 952,7	12 600,1	13 816,0